

**SHOFIRKON TARIXI VA ARXEOLOGIK MADANIY
YODGORLIKLARIGA BIR NAZAR**

Osiyo Xalqaro Universiteti “Tarix va filologiya” kafedrası Tarix fani
o’qituvchisi

Muyiddinov Bekali Bahodir o’g’li

Tarix ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi

Raximova Nigina Nabi qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shofirkonning qadimiyligi, buyuk ipak yo’lining o’tganligi, Vardonze qal’asining shu hududda joylashganligi, shuningdek, ikkinchi pir Xo’ja Orif Revgariy haqidagi ma’lumotlar aniq yortladi.

Kalit so’z. Narshaxiy, Vardonze, Vardonxudotlar, Buxoro tarixi, Duoba, Qutayba, Ark, Mohitobon, Xo’ja Orif Revgariy, Shopur, Amir Olimxon, Qisroniy, Xuroson, Orifnoma, Mayoq, Bahouddin Naqshbandiy, Zarafshon daryosi, Jilvon

Buxoro jahon sivilizatsiyasida qadimgi shaharlar qatorida alohida o’ringa ega shahar hisoblanadi. Buxoro atrofidagi joylarning tavsifi Narshaxiyning Buxoro tarixi kitobining aynan shu nomli bobida Narshaxiy Vardonze haqida u Buxorodan qadimiyroq deb takidlaydi. Demak, Narshaxiy ma’lumotlariga tayangan holda Vardonze qo’rg’onining tashkil topganiga ham 4 ming yildan ortiqroq vaqt bo’lganligini bilib olishimiz mumkin.

Narshaxiy 899-yilda tug’ulib, 959-yilda vafot etgan bo’lsa, demak IX asrning oxiri X asrning boshlaridagi o’zi kuzatgan voqealar va o’zi bilgan tarix haqida yozish bilan chegaralanmasdan, o’zidan oldin o’tgan arab va ajam tarixchilarini Buxoro haqida, Buxoro yaqinidagi joylar haqida ham o’z asarida yozib qoldirgan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida shu so’zlar zikr etilgan: “Sosoniylar sulolasidan bo’lgan Qisroniy farzantlaridan biri o’z otasidan arazlab bu viloyatga kelgan, o’sha o’gil Shopur edi. “Pur” Eron tilida “o’g’il” demakdir. U Buxoroga kelganida Buxorxudot uni yaxshi qabul qildi va unga Buxoroda yashashga ruxsat beradi. Vardonze qo’rg’oniga III-IV asrda Shopur degan shoh o’zining lashkarlari bilan ov qilish maqsadida keladi. Bu hudud Shopurga yoqib qoladi, keyin esa Samarqand podshosidan Vardonzeni mulk qilib berishini so’raydi. O’sha vaqtlarda hech bir qishloq va obod joy qolmagan edi. Shopur esa

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

bu hududlarni obod qilishini aytadi. Shuning uchun ham Shofirkon Shopurga mulk qilib beriladi. Shopur 17,5 metr bo'lgan joyning ustiga 20 metr balandlikda qo'rg'on qurdiradi va uni o'zining saroyiga aylantiradi. Bu qo'rg'onda doimiy ravishda o'rganish ishlari olib borilmoqda. Vardonze qo'rg'oni haqidagi hali aniq to'xtamga kelinganicha yoq. Qo'rg'onning qurilishi haqida ikki xil qarash borligi, birinchisi Eron shohi Shopur qurgan va uni o'ziga saroy qilgan, ikkinchi qarash esa Vardonze qo'rg'oni oldindan mavud bo'lganligi haqidagi qarashdir.

Shopur oldindan mavjud bo'lgan qo'rg'on ichini 5 metr shag'al bilan to'ldirib chiqqanligi, uning ustidan 1 metr 20 smlik paxsa urib, ot bilan bosib chiqqanligi, shuningdek qal'a devorlari xom g'ishtdan qurilganligi haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi. Shopur bu qal'a oldiga suv keltirish maqsadida, katta ariq Kom degan ariq olib keladi. Arxeologlar izlanishlari natijasida bu ariqning qayerdan ulanganligi aniqlangan. U hozirgi Shofirkon Duoba degan joydan ulangan ekan. Hozirda bu Kom atrofidagi hududlar qum bosish natijasida ko'milgan. Shofirkon nomi ana shu Shopur va Komning qo'shilishidan paydo bo'lgan. Shopur III-IV asrda Shofirkonda hukmronlik qilgan. Undan so'ng esa VIII-XII asrgacha arablar hukmronlik qilgan. Arxeologlarning izlanishlari natijasida topilgan buyumlar VIII-XII asrga oid.

Yuqorida Vardonze qal'asining paydo bo'lishini Shopur shaxsiga bog'lagan edik. Bunga asoslanadigan bo'lsak, Shopur qazigan anhor va Vardonzening bunyod bo'lishi V asrning 60-70-yillariga to'g'ri keladi. Xalq orasidagi afsona va rivoyatlarga asoslanadigan bo'lsak, qal'ani Turkiston tomondan kelib qolgan Vardona ismli yirik chorvador bunyod etgan. Ko'chmanchi bu chorvadorning kelishi Turk xoqonligining o'rnatilishi VI asrning 2-yarmni bilan bog'liq bo'lib, u bu yerdagi chorvaga qulay sharoitni ko'rib, shu yerga muqim bo'lib qolgan va asta-sekin boylik orttirib, o'zi uchun qal'a bunyod etgan.

Qutayba ibn Muslim islom dinini O'rta Osiyoga yoyish uchun Xurosondan qo'shin tortib kelgan paytida 3 oy Buxoroni qamal qilib qo'lga kiritgan bo'lsa, Vardonze qo'rg'onini 5 oydan ortiq qamalda ushlaydi. Demak qo'rg'on mustahkam, dushmanlar hujmiga qarshi o'ziga hos mudofaa devorlariga va qo'shiniga ega bo'lgan. Shahar davlatlari qatorida Vardonze qudratli Vardonxudotlar davlati deb atalgan. Vardonxudotlar degani o'zini o'zi boshqaradigan davlat. Qutayba har bir davlatga hujm qilganida ikkinchi davlat bilan sulx tuzgan. Shulardan u Buxoro va Vardonzeni bosib olishda qo'llagan. Vardonxudotlar o'zining qo'shinlari bilan Buxorxudotlarga yordam beraman

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

deb qo'shin yubormasligi sababli avval Buxoro keyin esa Vardonze vayronaga aylantirildi.

Qutayba lashkarlarini o'ldirgandan keyin esa Vardonze hududidan arablar chiqib ketadi. Vardonzedada oxirgi odam XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko'chib ketgan. Keyin esa qum bosib kelgan, hunarmandlarning uylari qoldiqlari hozirda ham bor. Qazishma ishlarida bosh suyagi boshqa joylardan esa tana qismi suyak qoldiqlari topilgan. Demak bu hududda jang bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Yana ko'pgina quduqlarning ham qoldiqlari borligi ma'lum. Ana shu quduqlarning ichida inson boshlarning tashlanganligininham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari Vardonzedan bronza tangalar, eng qimmatlisi esa Xitoy tangalarining topilganligi edi. Chunki Xitoy tangalari o'sha davrda butun dunyoda savdo uchun ishlatilgan. Bu hududdan ipak yo'li o'tgan. Xitoy karvonlari bilan kelib savdo qilgan. Yana izlanishlar natijasida qal'aning ichida yashirin yo'llar borligi aniqlangan. Dushman bostirib kirishi uchun uchta mustahkam devorni buzib kirishi kerak bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, bu hududga borishda botqoqlik, suvdan kechib kelinadi deyilgan. Shu botqoqlik hozirda Buxoroning ark joylashgan qismi hisoblanadi. Vardonze Buxoro arkidan qadimiyroq bo'lishi mumkin. Karvon shu suv botqoqlikdan o'tgan. Ark 2700yillik tarixga ega. Vardonzedan esa III-IV asrga oid ekspanatlar esa topilgan. Yana izlanishlardan keyin pastgi qatlamlar o'rganilgan. Mayoqlar ham topilgan. Ular o'sha paytda olov mabudiga sig'inishgan, mayoqlarning ustiga olov qo'yib shunga sig'inishgan.

1968-yil Rossiya tomonidan Zarafshon daryosining yuqori havzasi bosib olingach, suv yo'li to'sib qo'yildi. Buxoro, shuningdek, Vardonze va uning atrofidagi qishloqlarda dehqonchilik qilish nihoyatda og'irlashdi. Bundan tashqari qum bosish oqibatida xalqning turmush tarzi nihoyatda qiyin ahvolga tushib qoldi. Cho'l etagidagi Vardonzening hayot manbai bo'lgan Jilvon rudini butunlay qum bosgach ko'hna shahar o'z mavqeini yo'qotib bordi. Ishtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy markaz hozirgi Shofirkonga ko'chdi. Shofirkon va uning atroflari obod bo'la boshladi. Amirlik tuzumi davrida Shofirkon tuman bo'lgan. Uni qozi, amlokdor, rais boshqargan. Xo'ja Orif qishlog'i Shofirkonning markazi bo'lgan. Xo'ja Orif Revgariy-Shofirkon tumanining Revgar mahallasida tug'ulib, XII-XIII asrlar orasida yashab o'tgan zot. Kasbi dehqonchilik, bog'bonlik bo'lib, Kunduz kunlari halol mehnat bilan bog'bonlik, kechgi paytda ustoz Abdulxoliq G'ijduvoniya shogirt tushib, shariat va tariqaat ilmlarni puxta egallagan zot. Orifnoma asarida keltirilishicha ilm o'rganayotgan

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

jarayonlarida uyqu bosib mudrab qolarkan. Shunda ko'zlariga tuz bosib uyqularini qochirarkan. Xo'ja Orif Revgariy juda chiroyli inson bo'lgan ekan. Biror bir joyga borganda atroflaridan xushbo'ylik taralib turgan. U kishini oyga o'xshatishgan. Mohitobon nomi ham shu uchun berilgan. Bu Hazratning „Orifnoma“ asari bizgacha yetib kelgan. Bu asar asosan ilm o'rganishga, o'rgangan ilmga amal qilishga va har bir amalni ixlos bilan bajarishga chaqiradi. Ilm, amal, ixlos bitta qalbga jamlansa bu qalb sohibi komil insonga aylanadi deb nasihat beradi. U kishining g'oyalari „Dil bayor-u dasbakor“ Bahovuddin Naqshbandiyning tariqatlarini asoslab bergan. Ikkinchi pir sifatida qadrlanadi. Mohitobon majmuasi 1910-yilda Buxoroning so'ngi amiri Sayid Amir Olimxon tomonidan qurib, ziyoratgohga aylantirilgan. Komunistik tuzumi davrida e'tibordan chetda qolgan holatda edi. Mustaqillikka erishgandan keyin obod maskanga aylantirildi. Bu ziyoratgohda asosan muzeylar jome masjidlar yana Xo'ja Orif Revgariy dehqon bo'lganliklari uchun bog'lar tashkil etib qo'yilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Shofirkon qadimiligi jixatdan misir, bobil va Mesopotamiya kabi qadimiy davlatlar bilan tenglasha oladi. Shofirkon tarixida Xo'ja Orif Revgariy katta ahamiyatga ega shaxslardan biri hisoblanadi o'zi dehqonchilik bilan shug'illangan bo'lsada adabiy asarlardaxam o'z xissasini qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Narshaxiyning „Buxoro tarixi“
2. Salim Muxtor, Karim Bobomurodov, „Shofirkon tarixi“ 1998-yil.
3. S.QORAYEVNING „TOPONIMIKA“ „O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti“ 2006-yil
4. Halim To'rayev „Buxoro tarixi“ Durdona nashriyoti Buxoro 2020-yil